

Munosib taqdirlov

Bugungi kunda yoshlarimiz bir qator yaxshi g'oyalar, loyihalarni amalga oshirmoqdalar. Ular orasida har tomonlama iste'dodli yoshlarimiz ham juda ko'p. Bugun ana shunday iqtidorli, tashabbuskor talaba-yoshlarni rag'batlantirish, maqsadida "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti 8-zalida taqdirlash marosimi o'tkazildi. Aytib o'tish joizki, bugungi kunda fakultetda tahsil olayotgan har bir talaba iqtidorli, ular orasida o'zining har tomonlama tashabbuskorligi bilan ajralib turadigan iste'dodli tashabbuskor hamda ilg'or yetakchisi bo'lgan guruh sardorlari ham taqdirlandi. Iqtidorli talabalarni fakultet dekani A.Isakov, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini A.Mutalovlar taqdirlandilar.

Namangan viloyati Davlatobod tumani IT park filialida IDEATHON tanlovi bo'lib o'tdi:

Ushbu tanlovda universitetimizning "AUTONOMOUS" hamda "AVTOMATIKA" jamoasi a'zolari faol ishtirok etib "AGRO-TEXNOLOGIYA" yo'nalishi bo'yicha faxrli 2 va 3-o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

"O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyatining stipendiyasi sertifikatlari o'z egasini topdi: 4-bosqich talabasi Komiljonov Behzod va 2-bosqich talabasi Sirojova Husniya "O'zbekgidroenergo" AJ stipendianti bo'ldilar.



"O'zbekiston yoshlari forumi - 2021" doirasida Samarqand shahridagi IT Park Samarqand filiali binosida 15-dekabr kuni "Yoshlarning eng yaxshi innovatsion g'oyalari" hakatoni o'tkazildi.

Hakatonda QSXET fakulteti talaba yoshlaridan iborat Nigmatov_Azizjon_Maxkamovich

rahbarligidagi "AUTONOMOUS" jamoasi o'z loyihalari bilan munosib ishtirok etdi va 23-dekabr kuni Samarqand yoshlar markazi binosida o'tkazilgan "Yosh innovatorlar forumi" doirasida 30 ta jamoaning ichida eng yaxshi deb topilgan loyihalari uchun 5 000 000 so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanida IT Park rezidenti "Astrum" IT-Akademiyasi 3 kun davom etadigan "ASTRUMHACK 2022" xakatonini tashkil qildi. Hakaton davomida kuchli mentorlar tomonidan Start Up g'oyalari va 3 kun davomida g'oyalarni loyiha sifatida shakllantirish bo'yicha mahorat darslari tashkil etildi. Haktonda 3 kun davomida universitetimizning "AUTONOMOUS" jamoasi a'zolari munosib ishtirok etishdi. Jamoa sifatidagi faol ishtiroki uchun hakaton SERTIFIKATLARI bilan tag'dirlandilar.



"ТИҚХММИ" МИЛЛИЙ ТАДҚИҚОТ УНИВЕРСИТЕТИ ҚСХЕТ факултети ТЖИЧАБ кафедраси 2-босқич талабаси Сирожова Хусния Фулом қизи МДХ давлатлари ўртасида ўтказилган «Илм-фандаги Энг яхши инноватор-2022» халқаро мақолалар танловида 1100 дан ортиқ иштирокчилар орасида Топ-150 инноваторлар қаторидан жой олди ва DIPLOM hamda ko'krak nishoni bilan tag'dirlandi.

22-dekabr - ENERGETIKLAR KUNI munosabati bilan "Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari Instituti" Milliy tadqiqot Universitetida "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti hamda Ilmiy bo'lim xodimlari tashabbusi bilan "**KELAJAK ENERGIYASI**" nomli tanlov bo'lib o'tdi. "Eng yaxshi innovatsion ishlanma", "Start up loyiha", "Energiya tejashga da'vat etuvchi eng ta'sirli rasm", "Eng yaxshi dasturchi", "Eng yaxshi grafik dizayner", "Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish" singari turli yo'nalishlarda barcha talabalar o'z loyiha va belgilangan talablar asosida ishtirok etishib g'oliblar munosib taqdirlandilar.

Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini

rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish borasidagi islohotlarni tizimli amalga oshirsak, o'ylaymizki, kelajagimiz porloq bo'ladi.



QXET fakulteti dekan o'rinbosari A.Mutalov